DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-05-03-87 Pages: 748-754

Oriental Journal of Philology



ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:
http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about



THE ACCUSATIVE CASE IN ARABIC GRAMMAR (BASED ON ABDURAHMON JAMI'S "FAVAIDUZ ZIYAIYYA")

Buzahro M. Begmatova
Associate Professor, PhD in Law
Uzbekistan, Tashkent

Mushtariy P. Vakkosova
First-year Master's Student
Higher School of Arab Studies
Tashkent State University of Oriental Studies
Email: akchabayevamushtariy@gmail.com
Uzbekistan, Tashkent

ABOUT ARTICLE

Key words: Jami, "Favaiduz Ziyaiyya", "Sharhi Mullo", "Al-Kafiya", nahv, nasb, agents, grammar, inflection, cases, accusative constructions, objects.

Received: 06.03.25
Accepted: 08.03.25
Published: 10.03.25

Abstract: This article focuses on the grammatical analysis of the accusative case in Arabic, based on Abdurrahman Jami's interpretation in his work "Favaiduz-Ziyaiyya". The study examines Jami's views on the accusative case, its role in arabic grammar, and its interpretation within the field of nahv studies.

ARAB TILI GRAMMATIKASIDA TUSHUM KELISHIGI (ABDURAHMON JOMIYNING "FAVOIDUZ ZIYOIYYA" ASARI MISOLIDA)

Buzahro M. Begmatova
Dotsent, yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
O'zbekiston, Toshkent

Mushtariy P. Vakkosova
Magistratura I - bosqich talabasi
Arabshunoslik oliy maktabi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Email: akchabayevamushtariy@gmail.com
O'zbekiston, Toshkent

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar Jomiy, "Favoiduz

Annotatsiya: Ushbu maqola arab tilida

Ziyoiyya", "Sharhi Mullo", "Al-Kofiya", nahv, nasb, omillar, grammatika, fleksiya, kelishiklar, mansubot, maf'ullar.

tushum kelishigining grammatik xususiyatlarini Abdurahmon Jomiyning "Favoiduz-Ziyoiyya" asari asosida tahlil qilishga qaratilgan. Unda Jomiyning tushum kelishigi haqidagi qarashlari, uning arab grammatikasidagi o'rni hamda nahv ilmidagi talqini ilmiy nuqtai nazardan o'rganiladi.

ВИНИТЕЛЬНЫЙ ПАДЕЖ В ГРАММАТИКЕ АРАБСКОГО ЯЗЫКА (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ АБДУРАХМАНА ДЖАМИ «ФАВАИДУЗ ЗИЙАИЙЙЯ»)

Бузахро М. Бегматова
Доцент, доктор философии (PhD) по юридическим наукам
Узбекистан, Ташкент

Муштарий П. Ваккосова
Магистрант 1-го курса
Высшая школа арабистики
Ташкентский государственный университет востоковедения
Email: akchabayevamushtariy@gmail.com
Узбекистан, Ташкент

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Джами, «ФаваидузЗияийя», «Шархи Мулло», «Аль-Кафийя», нахв, насб, агенсы, грамматика, склонение, падежи, винительные конструкции, объекты.

Аннотация: Данная статья посвящена грамматическому анализу винительного падежа в арабском языке на примере трактовки Абдуррахмана Джами в его труде "Фаваидуз-Зийаийя". В работе рассматриваются взгляды Джами на винительный падеж, его место в системе арабской грамматики и интерпретация в науке нахв.

Kirish. Ma'lumki, Abdurahmon Jomiy adabiyotdagi yuksak asarlari bilan mashhur bo'lib, fors-tojik mumtoz adabiyotining eng yorqin namoyandalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Biroq, u nafaqat shoir va adabiyotshunos, balki tilshunos olim sifatida ham ilmiy meros qoldirgan. Ayniqsa, arab grammatikasiga oid "Favoiduz-Ziyoiyya" asari uning ilmiy izlanishlarining eng muhim natijalaridan biri hisoblanadi. Ushbu asar Ibn Hojibning "Al-Kofiya" asariga yozilgan eng yetuk sharhlardan biri bo'lib, o'rta asr madrasalarida arab tili grammatikasini o'qitish jarayonida asosiy darslik sifatida asrlar davomida keng qo'llanilgan. Jomiy bu asar orqali arab tilining murakkab grammatik qoidalarini izohlab, nahv ilmidagi tushunchalarni tizimli va aniq talqin qilishga erishgan. Shu bois, "Favoiduz Ziyoiyya" nafaqat o'rta asrlardagi ilmiy an'analarni aks ettiruvchi yirik asar, balki bugungi kunda ham arab tilshunosligi tadqiqotlarida muhim manbalardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ushbu tadqiqotda arab grammatikasi va nahv ilmining shakllanishi hamda uning madrasalarda o‘qitilish tarzi yuzasidan yirik manbalarga tayaniladi. Xususan, Abdurahmon Jomiy (1414–1492)ning “Al-Favoiduz-Ziyoiyya”, Mustafo G‘alayniy (XIX–XX asr)ning “Jomi‘ud-durusil-arabiyya” va Mahmud Zamaxshariy (1075–1144)ning “Al-Mufassal” asarlari tadqiqotning nazariy va amaliy asosini tashkil etadi. Tadqiqot materiallarining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, ular tavsifiy, qiyosiy va komponentli tahlil usullari asosida o‘rganildi.

Natijalar. Ma’lumki, Abdurahmon Jomiyning “Favoiduz Ziyoiyya” asari Ibn Hojibning mashhur “Al-Kofiya” nomli nahv ilmiga bag’ishlangan va arab grammatikasi sintaksis (grekcha “syntaxis” - “tuzish”) qoidalarini to’liq yoritib beruvchi asarga yozilgan sharhdir. Arab tili nahv (نحو) ilmi esa, o’z o’rnida, arab tilshunosligining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, so‘zlar va gap tuzilishini o‘rganadi. Bu fan arab tilining grammatik tizimida markaziy o‘rin tutadi va tilni to‘g‘ri tushunish hamda ifodalash uchun asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

Jomiyning “Favoiduz Ziyoiyya” asarida arab tili sintaksisining muhim jihatlari, xususan, ismlar fleksiya tizimi asosida yoritilgan bo‘lib, bu masala asarning “اسم” (ism) bobidagi “مُعْرَب” (mu‘rob – turlanadigan ismlar) bo‘limida keng tahlil qilinadi. Jomiy ushbu bo‘limda fleksiya (e‘rob) tushunchasini batafsil ochib berib, uning arab tilidagi sintaktik munosabatlarni ifodalashdagi markaziy o‘rnini asosli izohlagan. "Gap tarkibidagi bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarning o‘zaro bog‘lanishi, asosan, fleksiya vositasida namoyon bo‘ladi. Shu sababli, arab tilshunoslari avval ismlarning sintaktik jihatdan qo‘llanilish xususiyatlarini aniqlab, qaysi holatda ular bosh kelishikda, qachon qaratqich yoki tushum kelishiklarida kelishini tahlil qiladilar" (Girgas, 1873, p. 83).

Arab nahvchilari so‘zlarni kelishik o‘zgarishiga ko‘ra mabniy (مَبْنِيٌّ) va mu‘rob (مُعْرَبٌ) so‘zlarga ajratib o‘rganadilar. Mabniy so‘zlar jumlada boshqa so‘zlarga bog‘liq bo‘lsa yoki undan oldin omil (عامل) kelsa ham, ularning oxirgi harakati o‘zgarmaydi va ma’lum bir doimiy shaklda bo‘ladi. Shuning uchun bu turdagi so‘zlar morfologik o‘zgarishga uchramaydi. Aksincha, mu‘rob so‘zlar sintaktik tuzilishga bog‘liq holda turlicha grammatik o‘zgarishlarga uchraydi va ular jumladagi vazifasiga qarab turli kelishik shakllarini qabul qiladi. Nahvchilar mu‘rob so‘zlarning kelishik o‘zgarishlarini damma (ضَمٌّ), fatḥa (فَتْحَةٌ), kasra (كَسْرَةٌ) va sukun (سُكُونٌ) bilan ifodalash orqali tasniflaydilar. Ushbu tasnif orqali mu‘rob so‘zlarning gap tarkibida qanday grammatik ma’no kasb etishi aniq belgilanadi.

Jomiy asarda fleksiya hodisasini quyidagicha ta’riflaydi:

وفالمعرب المركب الذى لم يشبه مبني الاصل و هو الماضي و الامر بغير اللام و الحرف حكمه ان يختلف اخره باختلاف العوامل لفظا او تقديرا، الاعراب ما اختتلف اخره ليدل على المعانى المعتورة عليه و انواعه أي : أنواع اعراب الاسم ثلاثة : رفع و نصب و جر. فالرفع علم الفاعلية و النصب علم المفعولية و الجر علم الإضافة

.(Islamov and Ziyoev, 1989, p. 150-151; Jami, (n.d.), p. 17a-17b)

“مُعْـــرَب” (mu’rob)- “Turlanadigan (yoki o’zgaradigan) ismlar, turlanmaydigan (o’zgarmaydigan) ismlarga o’hshamaydi. Turlanadigan ismlarning oxirgi harakati omillar ta’sirida o’zgaradi va bu omillar “lafziy” va “taqdiriy” kabi turlarga bo’linadi. Ismlarning o’zgarishi ma’lum ma’nolarni anglatadi. Ism 3 ta kelishikda turlanadi, bular – رفع bosh kelishik, نصب – tushum, va جر - qaratqich kelishiklaridir. Bosh kelishik ish-harakatni bajaruvchisini tushum kelishigi to’ldiruvchi va holni qaratqich kelishigi esa izofaning belgisidir”.

Yana bir buyuk arab tilshunosi Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy (1075–1144) (أبو القاسم محمود بن عمر الزمخشري) o’zining “Al-Unmuzaj fin-Nahv” asarida fleksiyaga shunday ta’rif beradi: "الإعـرَابُ هُـوَ اِخْتِلاَفُ أَخِـرِ الكَلِمَـةِ بِـاِخْتِلاَفُ العَوَامِـلُ. اِخْتِلاَفُ الأَخِـرِ اِمَّا بِالحَرَكَـاتِ... وَ اِمَّا بِـالْحُرُوفِ”. “Omillar o‘zgarishi sababli so‘zlarning oxirida yuz beradigan o‘zgarish “e‘rob” deyiladi. So‘z oxiridagi o‘zgarish harakatlarda bo‘ladi yoki harflarda namoyon bo‘ladi” (Zamakhshari, (n.d.), p. 2.).

Shayx Mustafo G’alayniy o’zining “جامع الدروس العربية” asarida bunday ta’rif beradi:

فَالإِعْرَابُ: أَثَرَ يَحْدُثُ فِي اَخِرِ الكَلِمَةِ، بَعَدَ اِنْتِظَامِهَا فِى الجُمْلَةِ، فَيَكُونُ آخِرُهَا مَرْفُوعًا اوْ مَنْصُوبًا اوْ مَجْزُومًا، حَسْبَ مَا يَقْتَضِيهِ مَوْقِعُهَا فِى الجُمْلَةِ، مثل: "رَجُلٌ" مِنْ قَوْلِكَ جَاءَ رَجُلٌ، رأيتُ رجلاً، و مررتُ برجلٍ"، و مثل: "تذْهَبُ" من قولك: "تذهبُ، و لن تذهبَ، و لا تذهبْ" .

“E‘rob – jumladagi vazifasiga qarab, so‘z oxirida ro‘y beradigan hodisadir. So‘zning oxiri jumladagi vaziyatga qarab, dammalangan (marfū‘an - مرفوعًا) yo fathi bilan kelgan (mansūban - منصوبًا) yoki kasralangan (sukunlangan) (majzūman - مجزومًا) bo‘lishi mumkin. Masalan, "kishi" so‘zi quyidagi ko‘rinishlarda kelishi mumkin: Kishi keldi (bu yerda bosh kelishikda), kishini ko‘rdim (bu yerda tushum kelishigida), kishi bilan uchrashdim (bu yerda qaratqich kelishigida). Shu bilan birga, fe’llar ham turlicha i‘rob qilinadi, masalan: borayapsan (marfū‘an - مرفوعًا), umuman bormaysan (mansūban - منصوبًا), borma (majzūman - مجزومًا)” (Ghalayini, 1993, p. 21).

Biz yuqorida arab tilshunoslarining e‘rob haqidagi ta’riflarini tahlil qildik, quyida esa, ushbu masalaga arab bo‘lmagan arabshunos olimlarning qanday yondashganini ham ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Xususan, rus sharqshunosi B.M. Grande e‘robni quyidagicha tavsiflaydi: “Fleksiya nazariyasi arab grammatik tizimining o‘ziga xos va original xususiyatlaridan biri bo‘lib, u arab tilining tuzilishi va sintaktik imkoniyatlarini mukammal ifodalashda muhim omil hisoblanadi” (Grande, 1998, p. 291). Shu boisdan, arab tilining grammatik tuzilishini o‘rganishda e‘rob nazariyasi markaziy o‘rin tutib, so‘zlarning gap ichidagi sintaktik munosabatlarini belgilovchi asosiy omil sifatida e’tirof etiladi.

Shu nuqtada, arab tilshunosligining yana bir o‘ziga xos jihatini ta’kidlash lozim. “Ma’lumki, o‘zbek tilida va boshqa ko‘plab tillarda turlanish deganda otlarning kelishiklarda o‘zgarishi, tuslanish esa fe’llarning zamon va mayllarda o‘zgarishi tushuniladi. Arab nahvi

(grammatikasida) esa "mu‘rob" (مُعْـرَب) tushunchasi nafaqat otlarning turlanishini, balki fe’llarning tuslanishini ham qamrab oladi. Shu sababli, arab tilida bu ikki jarayonni farqlash uchun maxsus terminlar qo‘llaniladi. Xususan, "e‘robul-ism" (إِعْـرَابُ ٱلْأَسْـمِ) atamasi otlarning kelishik o‘zgarishlarini ifodalasa, "e‘robul-fi‘l" (إِعْرَابُ ٱلْفِعْلِ) esa fe’llarning zamon va mayllarga ko‘ra tuslanishini anglatadi. Bu farqlash usuli arab grammatikasining o‘ziga xos murakkab tizimli tuzilishini aks ettirib, sintaktik va morfologik jihatlarni aniq belgilashga xizmat qiladi” (Begmatova, 2020, p. 80).

Abdurahmon Jomiy “Favoiduz Ziyoiyya” asarida gapning ikkinchi darajali bo’laklarini المنصوبات – “Tushum kelishigidagi ismlar” va المجرورات “Qaratqich kelishigidagi ismlar” deb nomlanuvchi mavzularda yoritib beradi, va المنصـوبات – “Tushum kelishigidagi ismlar” ga shunday ta’rif beradi: “المنصوبات هو ما اشتمل على علم المفعولية” “Tushum kelishigidagi ismlar- ya’ni maf’ullar, to’ldiruvchilarning belgilarini o’z ichiga oladi”.

Ismlarning nasb holati, ya’ni yuqorida qayd etilganidek, tushum kelishigi haqida arab grammatikasiga oid manbalarda mukammal ma’lumotlar berilgan. Xususan, o‘rta asrning yetuk tilshunosi, vatandoshimiz Mahmud Zamaxshariy ushbu grammatik hodisani “Al-Unmuzaj” nomli asarida batafsil sharhlab, nasb holatining sintaktik va semantik jihatlarini aniqlashga alohida e’tibor qaratgan. Unga ko‘ra, nasb holati so‘zning jumladagi vazifasiga qarab shakllanib, ma’lum sintaktik omillar ta’sirida yuzaga chiqadi. Zamaxshariy bu hodisani nafaqat nazariy jihatdan tahlil qiladi, balki misollar orqali tushuntirib, uning gap tarkibidagi strukturaviy rolini yoritadi:

المَنْصُوبَاتِ ضَرْبَيْنِ: أَصْلٌ وَ مُلْحَق بِهِ. فَأَصْلِ هُوَ المَفْعُولُ وَ هُوَ عَلَى خَمْسَةِ أَضْرَب.

"Nasb holatidagi ismlar ikki xil bo‘ladi: asl nasb holatidagi ismlar va aslga o‘xshash nasb holatidagi ismlar. Asl nasb holatidagi ismlar مفعـول maf‘ullar (ya’ni to‘ldiruvchilar)dir" (Zamakhshari, (n.d.), p. 4.)

Tushum kelishigi (النصب) arab tilining eng muhim kelishiklaridan biri bo‘lib, so‘zlarning gap tarkibida qanday vazifalarni bajarayotganini aniqlashga xizmat qiladi. Ushbu kelishik turli grammatik maktablar tomonidan har xil tasniflangan. Ba’zi nahvshunos olimlar ismlarning النصب holatida turishini 11 turga bo‘lsalar, boshqa manbalarda bu son 14 taga yetkazilgan.

Umuman olganda, tushum kelishigidagi ismlar quyidagi asosiy turlarga ajratiladi: المفعول به (vositasiz to‘ldiruvchi), المفعـول المطلق (fe’lni ta’kidlovchi yoki tushuntiruvchi to‘ldiruvchi), المفعـول له (sabab yoki maqsadni ifodalovchi tushum kelishigidagi ism), المفعـول فيه (vaqt yoki makonni bildiruvchi tushum kelishigidagi ism), المفعـول معه (birgalikda bajarilgan harakatni ifodalovchi tushum kelishigidagi ism), الحـال (subyektning holatini ifodalovchi tushum kelishigidagi ism), التمييز (aniqroq ma’no berish yoki tushuntirish vazifasini bajaruvchi tushum kelishigidagi ism), الاستثناء (istisno yuklamasi orqali tushum kelishigiga o‘tgan so‘z), النـداء

(undalma, chaqiriq ma’nosidagi tushum kelishigidagi ism), خبر الفعل الناقص ("كان" va shunga o‘xshash nuqsonli fe’llarning kesimi), خبر ليس وأخواتها ("ليس" va unga o‘xshash yuklamalardan keyin kelgan ism), اسم إن وأخواتها ("إنّ" yuklamasidan keyingi tushum kelishigidagi ism), اسم لا النافية للجنس ("لا" inkor yuklamasidan keyin kelgan ism), va التابع للمنصوب (tushum kelishigidagi ismga ergashuvchi so‘zlar).

Maf’ullar mavzusi Mustafo G‘alayiyning "جَامِعُ الدُّرُوسِ العَرَبِيَّةِ" asarida ham keng yoritilgan bo‘lib, unda tushum kelishigidagi ismlar soni 14 ta deb ko‘rsatilgan. Biroq, boshqa nahvshunos olimlar tomonidan bu tasnif biroz toraytirilgan.

Ko’rib turganimizdek, ba’zi arab tilshunoslari, ismlar 12 yoki 14 holatda nasb holatda turishini aytib o‘tgan bo‘lsalar, ulardan farqli ravishda, tadqiqotimizning asosiy manbasi hisoblangan Abdurahmon Jomiyning “Favoiduz Ziyoiyya” asarida muallif tomonidan tushum kelishigidagi ismlar ikki qismga, ya’ni, “asl va asliga o’xshash tushum kelishigidagi ismlar” ga ajratilgan bo’lib bular: المفعول المطلق, المفعول به, المفعول فيه, المفعول له, المفعول معه va asliga o’xshash tushum kelishigidagi ismlar esa:

الحال, التمييز, المستثنى المُتَّصِل, المُسْتَثْنَى المُنْقَطِع, خبر كان وأخواتها, اسم إن وأخواتها, اسم لا النافية للجنس.

Maqola davomida biz tushum kelishigidagi ismlarning turli manbalarda turlicha bayon etilganini har tomonlama tahlil qildik. Mansub shakllarning mavjudligi faqatgina ism va ularning to‘ldiruvchilari o‘rtasidagi munosabatni aniq ifodalash bilan cheklanmay, balki murakkab g‘oyalarni samarali ifodalashga imkon yaratadi. Shu sababli, nasb holati arab tili sintaksisining muhim unsurlaridan biri bo‘lib, u orqali so‘zlarning o‘zaro munosabatlari, gapning mantiqiy tuzilishi hamda e‘robning mantiqiy izchilligi belgilanadi. Shunday qilib, tushum kelishigidagi ismlarning ahamiyati, asosan, harakat va uning obyekti o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’minlash orqali samarali muloqotga xizmat qilishidadir. Arab tilidan mukammal foydalanishning ajralmas belgisi bo‘lish bilan birga, ular tilda aniq ifoda va arab tilidagi o’ziga xoslikni ifodalashning muhim vositasi hamdir. Tushum kelishigining grammatik tizimdagi o‘rnini anglash orqali arab tilini o‘rganuvchilar va tadqiqotchilar ushbu tilning ichki tuzilishi va ifoda san’atini yanada chuqurroq tushunish imkoniga ega bo‘ladilar. Shubhasiz, bu har tomonlama yondashuv nasb holatining arab tili boyligiga qo‘shgan beqiyos hissasini va ushbu til orqali nozik muloqot rivojlanishidagi o‘rnini yoritib beradi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, "Favoiduz Ziyoiyya" asarida Jomiyning grammatik qoidalarni yoritishda o‘ziga xos yondashuvi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ushbu asarni nahvga oid boshqa manbalar bilan qiyosiy tahlil qilish natijasida unda sintaksis va morfologiya masalalarining zamonaviy lingvistik tamoyillar asosida yoritilgani aniqlanadi. Jomiy nafaqat an’anaviy grammatik konsepsiyalarga tayanadi, balki ularni chuqur mantiqiy va grammatik tahlil orqali yanada rivojlantiradi. Har bir mavzu batafsil yoritilib, aniq misollar asosida tushuntiriladi.

Shu jihatdan, "Favoiduz Ziyoiyya" nafaqat oʻz davri uchun muhim ilmiy manba boʻlib qolgan, balki bugungi kunda ham arab tili grammatik tuzilishini oʻrganishda asosiy ilmiy qoʻllanmalardan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Girgas, V. (1873). Outline of the grammatical system of the Arabs. Ocherk grammaticheskoj sistemy arabov. – Saint Petersburg: Printing House of the Imperial Academy of Sciences. – 83 p. (in Russian)
2. Islamov, Z., & Ziyoyev, T. (1989). Manuscripts of "Al-Fawa’id ad-Diyaiyya" by Abdurrahman Jami, stored in the Manuscript Fund of the Institute of Oriental Studies, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan. Rukopisi «Al-Favoid-ad-Dijaija» Abd ar-Rahmana Dzhami, hranyashchiesya v fonde Instituta rukopisej Aakademii Nauk Respupbliki Uzbekistan. // Collection. Abdurrahman Jami. – Tashkent – 150-151 pp. (in Russian)
3. Jami, A. (n.d.). Al-Fawa’id az-Ziyaiyya (Sharh al-Kafiya). Manuscript No. 9665. Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Institute of Oriental Studies. – 17a-17b pp. (in Arabic)
4. Zamakhshari, M. (n.d.). Al-Anmuzaj fi an-Nahw p. 2. (in Arabic)
5. Ghalayini, M. (1993). Jami‘ ad-Durus al-‘Arabiyya – Beirut: Dar al-Kutub al-‘Ilmiyya. – 21 h. (in Arabic)
6. Grande, B. M. (1998). Course on Arabic grammar in a comparative-historical perspective. Kurs arabskoj grammatiki v sravnitel'no-istoricheskom osveshchenii. – Moscow: Eastern Literature. – 291 p. (in Russian)
7. Begmatova, B. (2020). Maf’ul bihi in Arabic and its usage. Arab tilida maf’ul bihi va uning ishlatilish o’rni. – Sharq Mash’ali Journal. – Tashkent. – 80 p. (in Uzbek)
8. Zamakhshari, M. (n.d.). Al-Anmuzaj fi an-Nahw p. 4. (in Arabic)